

## Lingvomadaniyatshunoslik Fanining Dolzarb Lisoniy Masalalari Muhokamasi

*Tursunov Mirzo Makhmudovich<sup>1</sup>, Ahmedov Jahongirbek Ganijon ugli<sup>2</sup>*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola zamonaviy tilshunoslikning eng muhim tilshunoslik masalalaridan biri bilan bog'liq. Unda lingvomadaniyatshunoslik fanida o'rganiladigan asosiy masalalarga e'tibor qaratilgan. Maqolada fanning vujudga kelishi, tarixi, rivojlanishiga hissa qo'shgan olimlar bilan bog'liq ayrim masalalar ham muhokama qilinadi. Mavzuning zamonaviy jihatlari ham maqolada keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Madaniy ong, etnosotsial va madaniy hamjamiyat, madaniy qadriyatlar, dunyoning lingvistik tasviri, kontseptsiya sohasi, madaniy prototiplar, lingvistik belgilar.

O'tgan XX asrning 90 – yillarida tilshunoslik bilan madaniyatshunoslik orasida yangi fan sohasi, lingvokulturologiya lingvomadaniyatshunoslik paydo bo'ldi. U tilshunoslikning mustaqil yo'naliishi sifatida tan olindi. Lingvokulturologiya – tilshunoslik va madaniyatshunoslikning o'zaro bog'liqliklaridan paydo bo'lgan fan bo'lib, u xalq madaniyatining paydo bo'lishini tilda ifodalanishi va mujassamlanishini tadqiq etadi. Bu ikki yo'naliishni, ya'ni tilshunoslik va madaniyatshunoslik o'zaro bog'lanishi oddiy bog'lanish emas, balki bu yangi ilmiy asoslangan yo'naliishning vujudga kelishidir. Shuning uchun bu hodisa tilshunoslik va madaniyatshunoslikning vaqtincha bog'lanishi bo'lmashdan, u fanning sistemalashgan tarmog'i bo'lib o'zining mustaqil maqsad, vazifa, metod va tadqiqot obyektiga ega bo'lgan fandir. Lingvokulturologiyaning shakllanishi haqida deyarli barcha tadqiqotchilar ushbu nazariyaning ildizi V. Fon Gumboldtga borib taqalishini ta'kidlaydilar. Lingvokulturologiya sohasida jiddiy tadqiqotlar yaratgan V.A. Maslova ushbu sohaning rivojini 3 bosqichga ajratadi: 1) fan shakllanishiga turki bo'lgan dastlabki tadqiqotlarning yaratilishi (V. Fon Gumboldt, E.Benvnist, L.Vaysgerber, A.A. Potebnya, E.Sepir) kabi tilshunoslarning ishlari); 2) lingvokulturologiyaning alohida soha sifatida ajratilishi; 3) lingvokulturologiyaning rivojlanish bosqichi;

XXI asr boshiga kelib lingvokulturologiya dunyo tilshunosligidagi yetakchi yo'naliislardan biriga aylanib ulgurdi. Lingvokulturologiya tilni madaniy fenomeni sifatida o'rganuvchi fan bo'lib, o'zaro aloqadorlikda bo'lgan til va madaniyat uning predmetini tashkil etadi. Jumladan, V.N. Teliya bu haqida shunday yozadi: "Lingvokulturologiya inson omiliga, aniqrog'i insondagi madaniy omilni tadqiq etuvchi fandir. Bu esa shuni bildiradiki, lingvokulturologiya markazi madaniyat fenomeni bo'lgan inson to'g'risidagi antropologik paradigmaga xos bo'lgan yutuqlar majmuasidir". V.V. Vorobyev "lingvokulturologiya – sintezlovchi toifadagi kompleks ilm sohasi bo'lib, u madaniyat va til o'rtasidagi o'zaro aloqalar va ta'sirlashuvlarni o'rganadi. Bu jarayonni yagona lisoniy va nolisoniy (madaniy) mazmunga ega birliklarning yaxlit tarkibi sifatida mazkur jarayonni zamonaviy nufuzli madaniy ustuvorliklarga (umuminsoniy me'yorlar va qadryatlar) qaratilgan tizimli metodlar yordamida aks ettiradi", - deb ko'rsatadi. Ushbu tushunchalarning o'zaro farqli jihatlarini professor O'.Yusupov quydagicha izohlaydi: "Lingvokulturema - o'z semantikasida (ma'nosida) madaniyatning biror bo'lagini aks ettiruvchi til yoki nutq birligi. Lingvokulturemalarga madaniyatning biror bo'lagini aks ettiruvchi so'zlar, frazeologik birliklar, so'z birikmalari, gaplar, paremiyalar, murakkab sintaktik butunliklar, matnlar va hokazolar kiradi. Lingvokulturema mazmun va ifoda planiga ega, ifoda plani yuqorida ko'rsatilgan birliklar, mazmun planini esa o'sha birliklarning semantikasi tashkil qiladi. Demak, lingvokulturema kontseptdan o'zining mazmun va ifoda planiga ega bo'lishi bilan farq qiladi,

<sup>1</sup>BDU, ingлиз tilshunsoligi kafedrasi dotsenti, BSU, dotsent

<sup>2</sup>BDU, 2-bosqich magistranti



lingvokulturologiya uchun xalq madaniyatini lisoniy ko‘rinishda namoyon etish asosiy vazifa hisoblanadi. Uningcha, “lingvokulturema” tushunchasi qiyosiy tilshunoslik uchun foydali, “zero til – madaniy fakt, biz meros qilib oladigan madaniyatning tarkibiy qismi va ayni paytda qurol hamdir. Xalq madaniyati til orqali verballahadi, aynan til madaniyatining tayanch, asosiy tushunchalarini harakatga keltiradi va ularni belgilar ko‘rinishida, ya’ni so‘zlar vositasida ifoda etadi”.

Agar madaniyatshunoslik insonning tabiat, jamiyat, san’at, tarix va boshqa ijtimoiy va madaniy borliq sohalarida o‘z-o‘zini anglash xususiyatini o‘rgansa, tilshunoslik tilda dunyo lisoniy manzarasining mental modellari sifatida aks etuvchi dunyoqarashni o‘rganadi. Lingvokulturologiyaning asosiy tadqiqot predmeti esa doimiy o‘zaro ta’sirlashish holatida bo‘lgan ham til, ham madaniyat hisoblanadi. “Madaniyat” lotincha “Colere” so‘zidan olingen bo‘lib, “ishlov berish, tarbiyalash, rivojlanish, hurmat qilish, ibodat” ma’nolarini anglatadi. XVIII asrdan boshlab “madaniyat” atamasi inson faoliyatining mahsuli bo‘lgan barcha narsalarga nisbatan qo‘llanila boshlagan. Bu ma’nolarning barchasi “madaniyat” so‘zining qo‘llanilishida saqlanib qolgan, ammo aslida bu so‘z “insonning tabiatiga maqsadli ta’siri, tabiatning inson manfaatlari uchun o‘zgartirilishi, ya’ni yerga ishlov berilishi” (qishloq xo‘jalik madanyati) degan ma’noni anglatgan. Madaniy bilimlar — shu tilda so‘zlovchining madaniy-til kompetentsiyasining bir qismidir. Madaniy kompetensiya til kompetensiyasi bilan mos kelmaydi: “til kompetensiyasining madaniy kompetensiyaga o‘zgarishi madaniy kod kategoriyalarda til belgilari interpretatsiyasiga asoslangan. Shu turdagи interpretatsiyaga egalik madaniy-til kompetensiyasidir”.

Olamning ikkita modeli — konseptual va til modellarining o‘zaro bog‘liqligini qayd qilib, Yu.S.Stepanov ularni o‘zaro chalkashtirib qo‘yishdan ogohlantiradi: Til modelini madaniyatning predmeti sohasiga, va aksincha, madaniyat modelini tilning predmeti sohasiga ko‘chirib bo‘lmaydi”. Yu.S.Stepanov ham lingvistik nazariya uchun, ham madaniyat nazariyasi uchun qo‘llaniladigan alohida, ancha umumiylar tushunchalar apparatini ishlab chiqishga da’vat qildi. Mana shu lingvomadaniyatshunoslikning terminologik, tushuncha asosini (fimdamentini) tashkil etadi. Ba’zi olimlarning fikricha, lingvomadaniyatshunoslik XX asrning oxirgi choragida, tilshunoslikdagi antropologik paradigma mahsuli sifatida paydo bo‘ldi. Unga birinchi bo‘lib XIX asrda V. fon Gumboldt, o‘zining “Inson tillarining tuzilish farqlari va uning insoniyatning ma’naviy taraqqiyotiga ta’siri” nomli kitobida asos solib, til xarakteri va xalq xarakterining bir-biriga bog‘liqligini ifodalab bergen. “Turli tillar o‘z mohiyatiga, ong va sezgiga ta’siriga ko‘ra haqiqatan ham dunyonи turlicha his etishdir” va “tilning o‘ziga bo‘lgan xosligi millatning mohiyatiga ta’sir etadi, shuning uchun ham tilni sinchiklab o‘rganish tarix va falsafa insonning ichki dunyosi bilan bog‘laydigan hamma narsani o‘z ichiga olishi kerak”, degan fikr keng tarqaldi. Bunday yondashuvning yangiligi shundan iborat ediki, turli til shakllari ortida olim borliqni tafakkur qilish va anglash uslublaridagi farqlarni ko‘rni va tilda madaniyatning o‘ziga xos xususiyatlari mujassamlanadi, degan xulosa chiqardi.

Shunday qilib, lingvomadaniyatshunoslikning paydo bo‘lishi - XIX-XX asrlarning falsafiy va lingvistik nazariyalari taraqqiyotining qonuniy natijasidir. So‘nggi o‘n yil ichida Rossiyada bu fanga bag‘ishlangan bir necha ishlar nashr qilindi. V.A.Maslovaning darsligi lingvomadaniyatshunoslik sohasida eng ommabop ish hisoblanadi. Unda bu fanning metodologik asosi keltiriladi, Rossiyadagi lingvomadaniy tadqiqotlarning zamonaviy yo‘nalishlari bayon qilinadi. Muallif uni “lingvistika va madaniyatshunoslikning tutashgan joyida vujudga kelgan tilshunoslikning sohasi” deya ta’riflab, lingvomadaniyatshunoslikning fanlararo xarakterini ta’kidlaydi. Uning ta’rifiga ko‘ra, “lingvomadaniyatshunoslik — milliy jonli tilni o‘zida mujassamlantirgan va til jarayonlarida namoyon bo‘ladigan moddiy va ma’naviy madaniyatni o‘rganadigan ijtimoiy fan, yoki “madaniyatshunoslik va tilshunoslik, etnolingvistika va antropologiyaga oid tadqiqotlar natijasini o‘z ichiga oladigan bilimlarning integrativ sohasidir”. Muallif madaniy ma’lumotning translyatori sifatida chiqadigan tilning o‘zaro aloqasini va m adaniyatni — xalqning tarixiy xotirasini lingvomadaniyatshunoslikning ob‘yekti (butun borliq sohasi) deb ta’kidlaydi.

Lingvokulturologiya – “til va madaniyat”ning uzviy aloqadorligini, uning shakllanishi va rivojlanishini o‘zida aks ettirgan hodisalar – til-madaniyatni birgalikda o‘rganadigan alohida ilmiy soha sanaladi. U madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlari o‘rtasida yuzaga kelgan umumlashma fan bo‘lib, til va



madaniyatning o‘zaro ta’siri va bog‘liqligi, bu bog‘liqlikning shakllanishi hamda yaxlit bir sistema sifatida til va tildan tashqarida aks etishi kabi hodisalarni o‘rganish bilan shug‘ullanadi. Bir tomondan lingvomadaniyatshunoslikning insoniyatning madaniy til faktoridagi o‘rni, boshqa tomondan esa, til faktoridagi insonning o‘rnini o‘rganadi. Lingvomadaniyatshunoslikning o‘rganish obyektiga ko‘ra madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlariga birmuncha yaqin, biroq mazmun-mohiyati, o‘rganish obyektiga bo‘lgan yondoshuviga ko‘ra farqli deb aytish mumkin. Uning chegaralaruvchi maqomi shundan iboratki, u xalq madaniyatining tilda namoyon bo‘lishi hamda ifodalanishi, til mentaliteti, milliyligi, til ruhiyati bilan bog‘liq ravishda nutqiy muloqotni tashkil etishdagi milliy-madaniy spetsifik qoidalarni o‘rganadi hamda millat madaniyatining tilda aks etgan o‘ziga xos milliy til xususiyatlarni aniqlash, tadqiq etish bilan shug‘ullanadi. Til bir vaqtning o‘zida yaratish quroli, madaniyatning rivojlanishi va saqlanishini ta‘minlovchi uning bir qismidir, shuning uchun til yordamida ma’naviy madaniyat hamda borliqdagi ishlab chiqarish, materiallari real yaratiladi. Ana shu g‘oyalarning asosida ming yillarda chet elda yangi fan – lingvomadaniyatshunoslik vujudga keldi va XX asrning 90-yillarida maxsus soha sifatida shakllandı. Lingvomadaniyatshunoslik bugungi kunda bir necha yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi:

Lingvomadaniyatshunoslik yorqin madaniy aloqalarni, lingvo madaniy holatlarni, aniq ilmiy izlanishlarni o‘z ichiga oladigan alohida sotsial guruh. 2. Diaxronik lingvomadaniyatshunoslik. Lingvomadaniyatning etnos holatidagi aniq o‘tish vaqtining o‘zgarishlarini o‘rganadi. 3. Qiyosiy lingvomadaniyatshunoslik. Lingvomadaniyatda paydo bo‘ladigan turli xil etnolarning ikki tomonlama qiyoslash bilan shug‘ullanadi. 4. Tavsifiy lingvomadaniyatshunoslik. Bu sohada amalga oshirilayotgan ishlar barmoq bilan sanarli. Ular orasida M.K.Golovanivskaning “Rus tilida so‘zlashuvchilar nuqtai nazarida fransuz mentaliteti” nomli ishi katta ahamiyatga ega. Ishning obyekti sifatida rus va fransuz tillaridagi abstrakt tushunchalar: taqdir, xavf, omad, qalb, ong, tafakkur, g‘oya va boshqalar olingan. 5. Lingvomadaniy leksikografiya. Lingvo o‘lkashunoslik lug‘atlarini tuzish bilan shug‘ullanadi. Lingvokulturologianing bu yo‘nalishi hozirgi kunda boshqa yo‘nalishlarga qaraganda jadal rivojlanib bormoqda. Fikrimizning dalili sifatida D.G.Maltsevaning lingvoo‘lkashunoslik lug‘atini keltirishimiz mumkin. Bu lug‘at 25 bobdan iborat. Unda Olmon realiyalarida ifodalanuvchi til birliklari, iqlim xususiyatlari, hayvonot va o‘simlik dunyosi, mamlakatlar tarixi, qadimiy urf-odatlar, an‘analar; qadimiy afsonalar, son va rangni ifodalovchi simvollar; to‘y, marosimlar, bayramlar; diniy marosimlar; valyutatizimining rivojlanishi; uzunlik, og‘irlik, hajm, yuza; savdo-sotiqishlari, fan, texnika, tibbiyot; pochta xizmati, shaharlar qurilishi va arxitektura tarixi kabilar obyekt sifatida olingan.

Lingvomadaniyatshunoslik fanining asosiy o‘rganish obyekti hisoblanadigan til va madaniyat aloqadorligini aniqlash, tahlil qilish dolzarbdir, ularning o‘zaro chambarchas bog‘langan, bir-biridan ajratib bo‘lmaydigan tushunchalar ekanligiga shubha yo‘q, zero bugungi kunda til madaniyatsiz, madaniyat tilsiz mavjud bo‘la olmasligi ma’lum.

## References:

1. Barnow V. Culture and Personality. – Homewood, Illinois: – Dorsey Press. 1973. –P.111
2. Schultz A. Cultural Anthropology: A Perspective on the Human Condition. Oxford University Press, 2003. – P.32
3. Воробьёв В.В., Полякова Г.М. Сопоставительная лингвокультурология как новое научное направление/ // Вестник Российского университета дружбы народов. Серия Русский и иностранный языки и методика их преподавания. - 2012. №2. - С. 13
4. Маслова В. А. Когнитивная лингвистика. – Минск: Тетра Системс, 2004. – 256 с.
5. Maxmudovich, T. M., & Mansurovna, Z. S. (2023). INGLIZ VA RUS TILLARIDA INSONNING EMOTSIONAL HOLATINI IFODALAYDIGIN FRAZELOGIK BIRLIKLARNING LINGVOKOGNITIV TAHLILI. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(4), 862-869.
6. Mahmudovich, T. M., & G’affurovna, H. N. (2023, May). FRAZELOGIK BIRLIKLARNING LINGVOMADANIYAT FANI BILAN BOG‘LIQLIK JIHATLARI. In *Integration Conference on*



*Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes* (pp. 164-166).

7. Maxmudovich, T. M., & Asrorovna, E. S. (2023). INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI FRAZEOLGIK OLAMI TASVIRI TAHLILI. *Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes*, 274–277. Retrieved from <https://www.conferenceseries.info/index.php/online/article/view/1067>.
8. Maxmudovich, T. M., & Mansurovna, Z. S. (2023). INGLIZ VA RUS TILLARIDA INSONNING EMOTSIONAL HOLATINI IFODALAYDIGAN FRAZEOLGIK BIRLIKLARNING LINGVOKOGNITIV TAHLILI. Finland International Scientific Journal of Education. *Social Science & Humanities*, 11(4), 862-869.
9. Tursunov, M. (2020). THE LINGUISTIC FEATURES OF METAPHORIC PHRASEOLOGICAL UNITS IN THE UZBEK LANGUAGE. *Philology Matters*, 2020(1), 94-101.
10. Tursunov, M. M. (2018). LINGUO COGNITIVE ANALYSIS OF SOME METAPHORIC EXPRESSIONS CONTAINING ANIMAL RELATED LEXEMES IN THE ENGLISH LANGUAGE. *Scientific reports of Bukhara State University*, 1(5), 83-87.
11. Makhmudovich, T. M. (2023). A LINGUISTIC VIEW OF THE TERM “CONCEPT” AND ITS ROLE IN MODERN COGNITIVE LINGUISTICS. *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY*, 1(10), 8-14. <https://interonconf.org/index.php/ind/article/view/6062>.
12. Tursunov, M. (2023). " ANALYSIS OF NEW LEXICAL UNITS'EMERGENCE IN PUBLICISTIC TEXTS ON THE INTERNET PLATFORM. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 31(31). [http://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/9341](http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/9341).
13. Kilichev, B. E., Zaripov, B., & Kholmukhammedov, B. (2021). Lingvoculturological characteristics of anthroponyms used in artistic works. *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions*, 2(5).
14. Kilichev, B. E. A way of making words on proper nouns. *International Journal on Integrated Education*, 3(2), 96-98.. <https://media.neliti.com/media/publications/333098-a-way-of-making-words-on-proper-nouns-08e83e0e.pdf>.
15. Bayramali, K., & Timur, K. Adizova Nodira Classification of Oykons (On the Example of Bukhara Region) International Journal of Culture and Modernity ISSN 2697-2131, 2022.
16. Kilichev, B. E., & Sh, R. (2021). Uzbek national folk tales and the nature of anthroponyms in live communication. *Middle European Scientific Bulletin*, 12.
17. Kilichev, B., & Rustamova, M. (2023). METAFORAGA XOS BA'ZI BIR XUSUSIYATLAR (SIROJIDDIN SAYYID SHE'RIYATI MISOLIDA). *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 3(1 Part 1), 59-64.
18. Kilichev, B., & Shabanova, G. (2023). “BOBURNOMA” ASARIDAGI AYRIM TOPONIMLARNING ETIMOLOGIYASI HAQIDA. *Talqin Va Tadqiqotlar*, 1(18). извлечено от <https://talqinvatadqiqotlar.uz/index.php/tvt/article/view/8>.
19. Kilichev, Bayramali Ergashovich, Boltayeva, Mahfuza JONDOR TUMAN SHEVASINING AYRIM MA'NO GURUHLARI HAQIDA // ORIENSS. 2023. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/jondor-tuman-shevasining-ayrim-ma-no-guruhlari-haqida>.
20. Haydarov Anvar Askarovich. (2022). Phonostylistic Repetition. *Indonesian Journal of Innovation Studies*, 18. <https://doi.org/10.21070/ijins.v18i.618>



21. Askarovich, H. A. (2022, January). So'z Ma'nolari Intensivligi. In *Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes* (pp. 13-15).
22. Navruzova, N., & Haydarov, A. (2022). КОННОТАТИВНЫЕ ЗНАЧЕНИЯ, СВЯЗАННЫЕ С ЗВУКОВЫМИ ИЗМЕНЕНИЯМИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. Uz), 8 (8). ЦЕНТР НАУЧНЫХ.
23. Khaydarov, A. A. (2020). Expression of connotative meaning in onomatopoeia. *Scientific reports of Bukhara State University*, 4(5), 76-80.
24. Askarovich, H. A. (2021). EXPRESSION OF CONNOTATIVE MEANING IN GRAPHIC MEANS. *International Engineering Journal For Research & Development*, 6 (TITFL), 91–94.
25. Haydarov, A. A. (2023). KOMBINATOR VA POZITSION FONETIK O'ZGARISHLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA). *SUSTAINABILITY OF EDUCATION, SOCIO-ECONOMIC SCIENCE THEORY*, 1(6), 172-175.
26. Haydarov Anvar Askarovich, & Ruziyeva Nafisa Zarifovna. (2021). SEMANTICS OF EUPHEMISM IN BUSINESS LANGUAGE. *Conferencious Online*, 19–22. Retrieved from <https://conferencious.com/index.php/conferences/article/view/52>
27. Haydarov, A. (2020). Methodological features of graphic tools. *Middle European Scientific Bulletin*, 5.
28. Askarovich, H. A., & Nilufar, R. (2023). DENOTATIVE AND CONNOTATIVE MEANINGS IN WORD SEMANTICS. *Finland International Scientific Journal of Education. Social Science & Humanities*, 11(2), 393-399.
29. Askarovich, H. A. (2022). SOME COMMENTS ON THE STYLISTIC REPETITION. *JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*, 8 (1), 87–91.
30. Saidova, Z. X. (2016). Использование новых технологий на уроках английского языка. *Молодой ученый*, (7), 703-706. <https://elibrary.ru/item.asp?id=25863422>.
31. Saidova, Z. X. (2016). Обучение в сотрудничестве. *Молодой ученый*, (7), 701-703. <https://elibrary.ru/item.asp?id=25863421>.
32. Khudoyberdievna, S. Z. (2022). The main features of translation of phraseology from english into uzbek. *Scientific Impulse*, 1(3), 523-526. <https://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/1024>.
33. Saidova Zulfizar Khudoyberdievna Psychological bases Of the development moral and aethetic outlook of future vocational teachers // Научный журнал. 2017. №3 (16). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/psychological-bases-Of-the-development-moral-and-aesthetic-outlook-of-future-vocational-teachers>.
34. Saidova Zulfizar Khudoyberdievna Psychological bases Of the development moral and aethetic outlook of future vocational teachers // Научный журнал. 2017. №3 (16). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/psychological-bases-Of-the-development-moral-and-aesthetic-outlook-of-future-vocational-teachers>.
35. Khudoyberdievna, S. Z. (1871). THE STUDY OF PHRASEOLOGY AND COMPARATIVE ANALYSIS OF PHRASEOLOGISMS REFLECTING THE SPIRITUAL STATE OF HUMAN. *International Engineering Journal For Research & Development*, 6, 222-225.
36. Khudoyberdievna, S. Z. (2021). Analysis of the concepts of emotions in Russian and English phraseological picture of the world. *Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT*, 2, 11-18.
37. Saidova Zulfizar Khudoyberdievna Teaching English through games // Научный журнал. 2017. №3 (16). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/teaching-english-through-games>.



38. Khudoyberdievna, S. Z. (2021). Language Expressing Psychoemotional State of Human. In *International conference on multidisciplinary research and innovative technologies* (Vol. 2, pp. 108-113).
39. Jumayeva, O. (2021). Linguistic Culture Expressing Happiness and Contentment in The English And Uzbek Languages. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 5(5). [https://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/](https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/)
40. Jumayeva, O. (2021). Ingliz va Ozbek lingvomadaniyatida" Happiness va Baxt konseptining" ifodalanishi. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 5(5).
41. Jumayeva, Ozoda. "THE IMPLEMENTATION OF THE CONCEPT" HAPPINESS" IN UZBEK LANGUAGE." International Engineering Journal For Research & Development 6.TITFL (2021): 104-107. <http://iejrd.com/index.php%20/article/view/1844>
42. Jumayeva, O. (2020). EXPRESSION OF THE LINGUA-CULTURAL CONCEPT "HAPPINESS" IN PROVERBS AND PHRASEOLOGICAL UNITS. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 1(1).
43. Jumayeva, O. (2020). LANGUAGE IS A MEANS OF COGNITION AND COMMUNICATION. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 1(1).
44. Jumayeva, O. (2020). EXPRESSION OF THE LINGUA-CULTURAL CONCEPT "HAPPINESS" IN PROVERBS AND PHRASEOLOGICAL UNITS. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 1(1).

